

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ANTROPONIM KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING KELIB CHIQUISHIDAGI UMUMIY MANBALAR

Mirboyeva Kibriyo Azamat qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologizmlarning kelib chiqishidagi umumiy manbalar qiyosiy-tipologik hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotda antroponim ishtirokidagi frazeologik birliklarning shakllanish manbalari sifatida diniy matnlar, mifologik qatlam, tarixiy shaxslar faoliyati, adabiy manbalar, folklor an‘analari hamda madaniy-etnik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan antroponim komponentli frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyatlari, ularning lingvokulturologik mohiyati hamda milliy tafakkur bilan bog‘liqligi qiyosiy aspektda yoritiladi. Tadqiqot natijalari antroponimli frazeologizmlar xalq tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birlik ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalaridan qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya, lingvokulturologiya hamda tarjimashunoslik yo‘nalishlarida foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** antroponim, frazeologizm, lingvokulturologiya, qiyosiy tilshunoslik, etimologiya, semantika, ingliz tili, o‘zbek tili, frazeologik birlik, madaniy kod.

**Аннотация.** В данной статье исследуются общие источники происхождения фразеологизмов с антропонимическим компонентом в английском и узбекском языках с точки зрения сравнительно-типологического и лингвокультурологического подходов. В качестве основных источников формирования данных фразеологических единиц рассматриваются религиозные тексты, мифологический пласт, исторические личности, литературные источники, фольклорные традиции, а также культурно-этнические факторы. Особое внимание уделяется структурно-семантическим особенностям антропонимических фразеологизмов, их лингвокультурной природе и связи с национальным мышлением. Результаты исследования показывают, что антропонимические фразеологизмы являются важными языковыми единицами, отражающими историческую память народа, его социальный опыт и культурные ценности.

**Ключевые слова:** антропоним, фразеологизм, лингвокультурология, сравнительное языкознание, этимология, семантика, английский язык, узбекский язык.

**Abstract.** This article examines the common origins of phraseological units containing anthroponymic components in English and Uzbek from comparative-typological and linguocultural perspectives. The study analyzes religious texts, mythological layers, historical personalities, literary sources, folklore traditions, and cultural-ethnic factors as the principal sources of formation of such phraseological units. Special attention is paid to the structural-semantic characteristics of anthroponym-based phraseological expressions, their linguocultural essence, and their connection with national worldview. The results demonstrate that anthroponymic phraseological units serve as important linguistic markers reflecting historical memory, social experience, and cultural values of a nation.

**Keywords:** anthroponym, phraseology, linguoculturology, comparative linguistics, etymology, semantics, English language, Uzbek language, phraseological unit.

**Kirish.** Hozirga vaqtda zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganish tilshunoslikning dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Til xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi, mental dunyoqarashi, rivojlanishi hamda ijtimoiy qadriyatlarining ifodachisi bo‘lib, frazeologik birliklar ushbu hodisaning eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Ayniqsa, tarkibida antroponim, ya’ni inson nomlari ishtirok etgan frazeologizmlar til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan antroponim komponentli frazeologizmlar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, diniy qarashlari, mifologik tasavvurlari, ijtimoiy xotirasi hamda milliy madaniy stereotiplarini aks ettiruvchi lisoniy birliklardir. Masalan, ingliz tilidagi *Achilles' heel, doubting Thomas, smart Aleck* kabi birliklar yoki o'zbek tilidagi *Layli-Majnundek sevmok, Hotamtoylik qilmoq, Alpomishdek yigit* kabi frazeologik birliklar antroponimlarning semantik transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, muayyan madaniy konnotatsiyani ifodalaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Frazeologiya tilshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, u frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganadi. V. V. Vinogradov frazeologizmlarni semantik yaxlit turg'un birikmalar sifatida talqin qilgan bo'lsa, V. N. Telia ularni madaniy kod va lingvokulturologik hodisa sifatida izohlaydi. A. V. Kunin esa ingliz frazeologiyasining funksional va stilistik jihatlarini chuqur tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida Sh. Raxmatullayev va A. Hojiyev frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganib, ularning nazariy asoslarini yaratgan.

Antroponim komponentli frazeologizmlar esa frazeologiya va onomastikaning kesishgan sohasida shakllangan murakkab birliklar bo'lib, ularning lingvokulturologik va qiyosiy jihatlari hali yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli mazkur mavzu dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolamizni biz antroponim komponentli frazeologizmlarning nazariy mohiyatini aniqlash, ingliz va o'zbek tillaridagi mazkur birliklarning etimologik manbalarini tasniflash, umumiy manbalar asosida shakllangan frazeologizmlarning qiyosiy semantik tahlilini amalga oshirish va ularning lingvomadaniy yuklamasini aniqlash kabi yo'nalishlarini tahlilga tortdik.

**Tahlillar va natijalar.** Frazeologik birliklarning etimologik manbalarini aniqlash, ayniqsa turli til oilalariga mansub tillarda qiyosiy tadqiq etish, nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya, etnolingvistika hamda tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ingliz tili german tillari oilasiga, o'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, ayrim antroponim komponentli frazeologizmlarning shakllanishida umumiy manbalar mavjudligi kuzatiladi. Bular asosan diniy matnlar, mifologik syujetlar, xalqaro adabiy meros va tarixiy shaxslar bilan bog'liq holda shakllangan.

Biz mazkur maqolamizda ingliz va o'zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologizmlarning kelib chiqishidagi umumiy manbalarni qiyosiy-tipologik asosda tizimli ravishda tahlil qildik. Mavzu bo'yicha ayrim tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, aynan ikki til materiallari asosida umumiy etimologik manbalarni lingvokulturologik aspektda tahlil qilish yetarli darajada tadqiq etilmaganligini sezdik.

Maqolamzida biz ingliz va o'zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologizmlarning kelib chiqishidagi umumiy manbalarni aniqlash, ularning semantik,

etimologik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlillari bilan qiziqib ko'rdik.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologizmlarning kelib chiqishidagi umumiy manbalarni aniqlash, ularning struktur-semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida zamonaviy tilshunoslikning bir qator ilmiy metodlaridan foydalandik.

Avvalo, **qiyosiy-tipologik metod** tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi sifatida tanlandi. Ushbu metod yordamida genetik jihatdan turli til oilalariga mansub bo'lgan ingliz va o'zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologik birliklarning umumiy va differensial xususiyatlari aniqlandi. Mazkur metod turli tillardagi frazeologik birliklarning semantik moslik darajasini, struktur shakllanishini hamda ularning madaniy asoslarini qiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini berdi.

Maqolada **deskriptiv (tavsifiy) metod** ham muhim o'rin egalladi. Bu metod orqali antroponim ishtirokidagi frazeologizmlarning semantik tarkibi, ularning ma'naviy transformatsiyasi hamda funksional qo'llanishi batafsil tavsiflandi.

Frazeologik birliklarning ichki semantik tuzilishini aniqlash maqsadida **komponent tahlil metodi** qo'llanildi. Mazkur metod antroponim komponentining umumiy frazeologik ma'nodagi semantik rolini aniqlashga xizmat qildi. Chunki ko'plab hollarda antroponim o'zining denotativ ma'nosidan uzoqlashib, konnotativ yoki ramziy ma'no kasb etadi.

Maqolamizni **etimologik tahlil metodi** tomonidan o'rganganimiz alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur metod orqali frazeologizmlarning tarixiy kelib chiqish manbalari, ularning diniy, mifologik, folklorik, tarixiy va adabiy ildizlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, lingvokulturologik metod qo'llanib, antroponim komponentli frazeologizmlarning milliy mentalitet, tarixiy xotira, madaniy kod va etnik tafakkur bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Chunki bunday birliklar ko'pincha xalqning kollektiv ongida shakllangan madaniy stereotiplarni aks ettiradi.

Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi orqali ayrim frazeologik birliklarning nutqiy muhitdagi pragmatik funksiyalari o'rganildi.

Maqolaning nazariy asoslariga qaraganizmida frazeologiya fani zamonaviy tilshunoslikning mustaqil tarmoqlaridan biri sifatida tilning barqaror birikmalar tizimini o'rganadi. Frazeologik birliklar xalqning madaniy xotirasi, dunyoqarashi va tarixiy tajribasining lingvistik in'ikosi sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Frazeologizm tushunchasiga turli olimlar turlicha yondashgan. Akademik V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni tilning semantik jihatdan yaxlit, komponentlari mustaqil ma'no yo'qotgan turg'un birikmalari sifatida izohlaydi. A.V. Kunin esa frazeologizmlarni nutqda tayyor holda qo'llaniladigan, obrazlilik va ekspressivlikka ega turg'un birliklar deb ta'riflaydi. O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklarga oid ilmiy qarashlar shakllangan bo'lib, Sh. Рахматуллаев, B. Yo'ldoshev, A. Hojiyev kabi olimlar ushbu masalani turli aspektlarda tadqiq etganlar.

Antroponimlar esa onomastikaning muhim qatlami sifatida inson nomlari tizimini anglatadi. Tilshunoslikda antroponimlar faqat nominativ birlik emas, balki madaniy-semantik kod sifatida ham qaraladi. Ayrim antroponimlar tarixiy taraqqiyot davomida individual nom maqomidan chiqib, umumlashgan madaniy ramzga aylanadi.

Masalan:

**Achilles** — zaif nuqta ramzi;

**Thomas** — shubha va ishonchsizlik ramzi;

**Solomon** — donolik timsoli;

**Layli va Majnun** — fidoiy muhabbat timsoli;

**Hotamtoy** — saxovat timsoli;

**Alpomish** — jasorat va qahramonlik timsoli.

Bu holat antroponimlarning semantik desemanizatsiyasi va frazeologiklashuvi jarayonini ko'rsatadi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan antroponim komponentli frazeologizmlar "madaniy kod" sifatida talqin qilinadi. Chunki ular muayyan xalqning diniy qarashlari, tarixiy tajribasi, mifologik tafakkuri va kollektiv ongida shakllangan stereotiplarni aks ettiradi.

Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik tilni inson tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. Shu nuqtayi nazardan antroponimli frazeologizmlar nafaqat leksik-semantik birlik, balki xalqning mental xaritasini aks ettiruvchi konseptual model sifatida qaraladi.

Maqolada frazeologik birliklarning shakllanishidagi umumiy manbalar quyidagicha tasniflanadi:

### **1. Diniy manbalar asosida shakllangan antroponim komponentli frazeologizmlar.**

Antroponim komponentli frazeologik birliklarning shakllanishida diniy manbalar eng qadimiy va sermahsul etimologik qatlamlardan biri hisoblanadi. Diniy matnlar, xususan, **Bibliya, Injil, Qur'oni karim, hadislar, diniy rivoyatlar va payg'ambarlar haqidagi qissalar** ko'plab tillarda frazeologik birliklarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Bunday birliklar xalqning diniy tafakkuri, axloqiy qarashlari, e'tiqodiy tasavvurlari va kollektiv xotirasini o'zida mujassamlashtiradi.

Diniy manbalar asosida shakllangan frazeologizmlarning muhim xususiyati shundaki, ular individual ismning nominativ funksiyasidan chiqib, ramziy-konnotativ ma'no kasb etadi. Natijada muayyan antroponim umumlashgan konseptual birlikka aylanadi.

Ingliz tilida diniy manbaga oid antroponim komponentli frazeologizmlar ko'p uchraydi, chunki ingliz frazeologiyasi shakllanishida Bibliyaning ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan.

Masalan:

#### **a) Doubting Thomas**

**Doubting Thomas** iborasi ingliz tilida “hamma narsaga shubha bilan qaraydigan odam”, “ishonchsiz shaxs” ma’nosida qo‘llanadi.

Etimologik jihatdan bu birlik Injildagi apostol Tomas obraziga borib taqaladi. Rivoyatga ko‘ra, Iso Masih tirilganidan keyin Tomas bunga darhol ishonmagan va buni shaxsan ko‘rmaguncha qabul qilmasligini aytgan.

Misol:

*He is such a doubting Thomas; he never believes anything immediately.*

Mazkur birlikda Thomas antroponimi shaxs nomidan abstrakt semantik belgiga — skeptitsizm konseptiga aylangan.

O‘zbek tilida bunga qisman semantik jihatdan yaqin birlik: “**ko‘rmaganga ishonmas**”, biroq unda antroponim komponent mavjud emas.

Bu holat ingliz frazeologiyasida diniy antroponimlarning ko‘proq saqlanganini ko‘rsatadi.

### b) Yusufdek chiroyli

Yusuf payg‘ambar sharq madaniyatida go‘zallik timsoli.

Frazeologik ma’no:

“juda kelishgan”, “nihoyatda chiroyli”.

Misol:

*Yigit Yusufdek chiroyli ekan.*

Ingliz tilida to‘liq ekvivalenti deyarli uchramaydi.

Bu milliy-madaniy farqni ko‘rsatadi.

**2. Mifologik manbalar asosida shakllangan antroponim komponentli frazeologizmlar.** Antroponim komponentli frazeologizmlarning shakllanishida mifologik manbalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ingliz tilida yunon-rim mifologiyasi asosida shakllangan frazeologik birliklar keng tarqalgan. Bunday birliklarda mifologik qahramonlarning nomlari muayyan semantik ramzga aylangan.

**Achilles’ heel** iborasi ingliz tilida “zaif nuqta”, “eng nozik jihat” ma’nosida qo‘llanadi. Bu birlik yunon mifologiyasidagi Axilles obrazi bilan bog‘liq bo‘lib, rivoyatga ko‘ra uning yagona zaif joyi tovonni bo‘lgan. Misol: *Lack of experience is his Achilles’ heel.*

Yana bir misol — **Herculean task**, ya’ni “nihoyatda og‘ir vazifa”. Bu frazeologizm Gerkulesning ulkan jasorat va kuch bilan bog‘liq afsonaviy obraziga asoslangan. Misol: *Finishing this project in one week is a Herculean task.*

O‘zbek tilida g‘arb mifologiyasiga asoslangan frazeologizmlar kamroq uchraydi, biroq sharq mifologik va epik qahramonlari asosida shakllangan birliklar mavjud. Masalan, **Rustamdek kuchli** iborasi kuch-qudrat ramzi sifatida qo‘llanadi.

Qiyosiy jihatdan ingliz tilida mifologik antroponimlar faolroq frazeologiklashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida bu hodisa ko‘proq epik qahramonlar orqali namoyon bo‘ladi.

**3. Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq manbalar.** Tarixiy shaxslar nomlari ham vaqt o‘tishi bilan frazeologik birliklar tarkibida ramziy ma’no kasb etadi. Bunday birliklar xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tajribasini aks ettiradi.

Ingliz tilida **smart Aleck** iborasi “o‘zini aqlli ko‘rsatadigan, haddan tashqari bilag‘on odam” ma’nosini anglatadi. Ushbu birlik XIX asrda yashagan Aleck Hoag ismli shaxs bilan bog‘liq.

Yana **Peeping Tom** frazeologizmi “yashirin kuzatuvchi” ma’nosida ishlatiladi. Bu birlik Lady Godiva haqidagi afsona bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida **Hotamtoy** nomi saxovat timsoliga aylangan.

Misol: *U Hotamtoydek saxiy inson.*

Shuningdek, **Qorabotirdek jasur** kabi tarixiy-obrazli birliklar ham uchraydi.

Tarixiy shaxslar asosidagi frazeologizmlar ingliz tilida ko‘proq individual tarixiy nomlarga, o‘zbek tilida esa sharq madaniy qahramonlariga tayanadi.

**4. Adabiy manbalar.** Adabiy asarlar ham frazeologik birliklarning muhim manbalaridan biridir. Mashhur badiiy qahramonlar nomlari keyinchalik umumlashgan semantik birlikka aylanadi.

Ingliz tilida **Romeo** nomi romantik oshiq obrazini ifodalaydi.

Misol: *He behaves like Romeo.*

Shuningdek, **Scrooge** iborasi Charles Dickens asari qahramoni nomidan kelib chiqib, “o‘ta xasis odam” ma’nosida ishlatiladi.

O‘zbek tilida **Layli-Majnundek sevmog‘** iborasi fidoyi muhabbat ramzi hisoblanadi.

Yana **Farhoddek mehnatkash** iborasi ham adabiy manbaga asoslangan.

Demak, adabiy manbalar asosidagi antroponimli frazeologizmlar har ikki tilda kuchli madaniy yuklamaga ega.

**5. Folklor manbalari.** Folklor antroponimli frazeologizmlarning qadimiy manbalaridan biridir. Xalq og‘zaki ijodi orqali shakllangan obrazlar keyinchalik frazeologik birlikka aylanadi.

O‘zbek tilida **Alpomishdek yigit** iborasi jasorat va mardlik timsolidir.

Shuningdek, **Go‘ro‘g‘lidek botir** iborasi ham folklor manbaga ega.

Ingliz tilida **Robin Hood** obrazi saxovat va kambag‘allarga yordam timsoli sifatida qo‘llanadi.

Folklor birliklari xalq mentalitetining bevosita ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

**6. Madaniy-universal manbalar.** Ba’zi antroponimli frazeologizmlar ma’lum bir xalq doirasidan chiqib, umumjahon madaniy hodisaga aylanadi.

Masalan, **Solomon** nomi ko‘plab tillarda donolik timsoli sifatida ishlatiladi.

**Romeo** esa xalqaro miqyosda romantik oshiq obrazi sifatida tanilgan.

O‘zbek tilida ham **Hotamtoy** saxovat ramzi sifatida keng tanilgan bo‘lib, ayrim sharq xalqlarida ham uchraydi.

Madaniy-universal manbalar frazeologik birliklarning milliy chegaradan chiqib, xalqaro semantik birlikka aylanishini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologizmlarning kelib chiqish manbalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mazkur frazeologik birliklar nafaqat tilning barqaror semantik birliklari, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri va milliy dunyoqarashining muhim ifodachisi hisoblanadi. Antroponimlar frazeologik birlik tarkibida o'zining birlamchi nominativ vazifasidan uzoqlashib, ramziy, konnotativ hamda madaniy-semantik mazmun kasb etadi.

Maqolamizda ingliz va o'zbek tillaridagi antroponim komponentli frazeologizmlarning shakllanishida bir qator umumiy etimologik manbalar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, diniy manbalar, mifologik qatlam, tarixiy shaxslar, adabiy meros, folklor an'analari hamda madaniy-universal omillar mazkur birliklarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Qiyosiy tahlil natijasida ingliz tilida Bibliya, yunon-rim mifologiyasi va g'arb adabiyoti asosidagi antroponimli frazeologizmlar faolroq ekanligi aniqlandi. O'zbek tilida esa islomiy madaniyat, sharq klassik adabiyoti hamda xalq og'zaki ijodi asosidagi birliklar ustunlik qiladi. Bu esa frazeologik tizimning milliy-madaniy xususiyatlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ayrim antroponimlar turli tillarda umumiy konseptual ma'noga ega ekanligi kuzatildi. Masalan, Solomon/Sulaymon donolik, Job/Ayyub sabr timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ayrim frazeologik birliklarning universal madaniy asosga ega ekanligini tasdiqlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996.
4. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц русского языка. – Москва: Наука, 1977.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
6. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004.